

AMALIYOTCHI PSIXOLOG FAOLOIYATIDA PERAGOGIK QOBILIYATLARNING O'RNI

Dilnoza Normatova

*Jizzax viloyati G`allaorol tumani MMTBga qarashli 19- umumiy o`rta ta`lim
maktabining amaliyotchi psixologini*

Maktab amaliyotchi psixologining faoliyatida pedagogik perceptiv qobiliyatning o`rni beqiyosdir. Hozirgi rivojlanish jadallik bilan o`sib berayotgan bu davrda prdagog -psixologning bolalar va o'smir,o'spirinlar psixologiyasining shaxsiy individual xususiyatlarini bilmasliklari oqibatida muammoli vaziyatlarning kelib chiqishi kuzatiladi. Amaliyotchi psixolog o'quvchilarni kuzatish jarayonida har bir o'quvchining individual psixologik xususiyatlarini bilishi va unga nisbatan munosabat o`rnatishi, qonun-qoida, metodlarni to'g'ri tanlay olishi zarur. Agarda har bir o'quvchi bilan individual yosh xususiyatlari va xarakter xususiyatlariga mos ravishda ishni tashkil etsa bu munosabat butunlay o'quvchi yodida qolishi mumkin.

Shunday ekan amaliyotchi psixologning pedagogik faoliyat o'ta murakkab, qiziqarli, hurmatli va sirli jarayondir. Pedagogik-psixologik faoliyat boshqa faoliyat turlari kabi o'z motivatsiyasi ishonchliligi, inson qalbi bilan bog'liq, ,maqsadi, predmeti, vositalari, usullari, mahsuli va natijasini aks ettiruvchi psixologik mazmunni ifodalaydi. Psixologik-pedagogik faoliyatdagi muhim jihatlardan biri bu pedagogik qobiliyatlardir. Ular 9 turda o'z mohiyatini ochib beradi.

Didaktik qobiliyatlar, akademik qobiliyatlar, perceptiv qobiliyatlar, nutq qobiliyati, tashkilotchilik qobiliyati, avtoritar qobiliyatlar, kommunikativ qobiliyatlar, pedagogik xayol, diqqatni taqsimlay olish qobiliyati. Shulardan eng muhim deb hisoblangani pedagog-psixolog uchun bu perceptiv qobiliyatdir .Perceptiv qobiliyat- bu psixologik kuzatuvchanlik, o'quvchi shaxsining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish, o'quvchining vaqtinchalik psixik holatlarini tushuna bilişdan iborat qobiliyatdir. Demak o'quvchi maktabga kelgan holatdagi uning ko'rinishi kayfiyatining turg'unligi yoki tushkunligini eng birinchi sinf xonasiga kirib kelgan vaqtida pedagog-psixolog shaxsi perceptiv qobiliyatga ega bo'lsa bu holatni tushunib olish qiyin bo'lmaydi. Perceptiv qobiliyat bu ichki sezish, ichki tushunish, qalb bilan bog'liq psixik holatdir. Asosiysi shundaki maktab ta'limidagi dars berayotgan o'qituvchilar hozirgi zamon talabini ya'ni akseleratsiya jarayoninig tezlashishi natijasida o'smir xarakter xususiyatlarining o'zgaruvchan bo'lib qolishini tushunishlari va bu borada xorij pedagog-psixologlari tajribasidan kengroq va o'zbek mentalitetiga mos jihatlarini o'z kasbiy faoliyatlarida qo'llay olishlari zarur deb bilaman. Umumiyyatda tadqiqotlar

natijasida o‘qituvchilaga nisbatan o‘smirlarning talab va umidlari chet el psixologlari tomonidan tadqiq qilingan bo‘lib, A.Djersildning izlanishlariga binoan bolalar va o‘smirlar quyidagi xarakterga ega bo‘lgan o‘qituvchilarni afzal hisoblar ekanlar:

1. Mehribon, quvnoq, javobgarlikni his qiluvchi, barqaror insoniy sifatli
2. Haqiqatgo‘y, batartib, halol, boshqalarni hurmatlovchi, tashkilotchilik sifatidagi.
3. Boshqalar manfaatini o`ylaydigan, xalqparvar, sinf ishlarida o`quvchilarga erkinlik huquqini beradigan, qiziquvchan va ishtiyoqli.

Demak bunday tadqiqot natijalariga ko‘ra o‘quvchilar ham pozitiv kayfiyatdagi, qat‘iyatli va ishonchli insonlar bilan muloqat qilish va mashg‘ulotlar o‘tishni xush ko‘rar ekanlar. “O‘qituvchi”-deydi Al Farobi, -aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo‘lishi va o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘la va aniq ifodalay bilmog‘i zarur”

Abu Ali Ibn Sino fikricha “O‘qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo‘y va bolani tarbiyalash metodlarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo‘lmog‘i lozim. O‘qituvchi o‘quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o‘rganib, uning aql qatlamlariga kirolmog‘i lozim”. E‘tiborlisi shundaki Ibn Sino o‘quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o‘rganmog‘i lozim deganda, psixik holatlari ya‘ni xarakter xususiyatlarini uning ichki olamidan xabardor bo‘lishini ta‘kidlab o‘tganlar. Bunda perceptiv qobiliyatni nazarda tutganlar.

Alisher Navoiyning fikrlari talqinida muomala qiluvchi shaxsning mahoratiga kuchli e‘tibor berishi, o‘zining psixologik, estetik, jismoniy, axloqiy jihatlarini namuna holatda namoyon etishi mumkin. Yuksak tuyg‘u madaniyatga ega bo‘lgan pedagog-psixolog o‘quvchilarning kayfiyati, uning qalbida kechayotgan noxushliklarini darrov fahmlaydi. O‘quvchi ahvolini tushunish va unga hamdard bo‘lish, madad berish kerak, deya o‘qituvchining perceptiv qobiliyatini nazarda tutadi. Zamonaviy ta’lim berish va tarbiya berishda pedagog –psixologlarning kasbiga insonlarning hurmati judayam baland insoniyat tarixi boshlangandan buyon davom etib kelayotgan va davom etadigan kasblardan biri bo‘lib e‘zozlanib kelinmoqda Nasriddin Tusiy o‘zining “O‘qituvchilarni tarbiyalash to‘g‘risida” degan asarida shunday deydi: “O‘qituvchi munozaralarni olib borishni, rad etib bo‘lmaydigan darajadagi isbot qilishni bilishi, o‘z fikrlarining to‘g‘riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumlalari mantiqiy ifodalangan bo‘lishi lozim O‘qituvchi va nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo‘pol yoki qattiq bo‘lishi mumkin emas. Dars paytida o‘qituvchining o‘zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin “Shunday ekan bunday fikrlar zamirida pedagog-psixolog o‘ziga jalb qila olish qobiliyati va ichki intuitsiyaga ega bo‘lishi lozimligini ta‘kidlaydi. Ayrim o‘qituvchilar borki o‘z uyidagi mojarolar sababli ish vaqtida o‘z

muammolariga ko‘milib o‘quvchilarning kayfiyati va munosabatlariga befarqlar, bunday holatda pedagog-psixolog aktyorlik qobiliyatini ishga solib bunday noqulay vaziyatlarda ishga, mакtab muhitiga o‘z uyidagi muammolarni ortmoqlab kelishga haqqi yo‘q. Har bir inson hayotda yashar ekan turli muammo va tushkunlik kayfiyatlariga tushishi, turli noxush vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Mana shu kabi holatlarda nega endi o‘z muammolarimizni o‘quvchilarga sezdirishimiz kerak. Axir hozirgi zamon o‘quvchisi bizdanda o‘tkir zehnli va aqli kuchli darajada, inson qiyofasidagi psixik holatlarni tezda ilg‘ay oladilar. Shu o‘rinda dars jarayonlarida o‘quvchi ayniqsa o‘smirlarning psixik holatlaridagi o‘zgarishlar va kayfiyatlariga baho berish ularni bu holatdan tez chiqib ketishiga ko‘maklashish uchun perceptiv qobiliyatlarni ishga solib mакtab pedagogik jamoasi bilan hamkorlikda ish olib borish ularni bu holatlardan dars jarayonida o‘quvchilarning kayfiyatlarini tushkun yoki ko‘tarinkiligidan ogoh bo‘lish turli noxush vaziyatlarning oldini olishda yordam beradi. Zero shunday ekan oildagi turli tuman ota-onalar o‘rtasidagi muomala va munosabatlardan, janjalli yoki muammoli vaziyatlarni boshdan kechirib, turli-tuman oilaviy nizolar, psixik hodisalarni boshdan kechirib, xabardor bo‘gan o‘smir yoshdagi o‘g‘il-qizlar maktabga kelishda o‘sha uyidagi kayfiyat bilan chiqadilar, o‘zi bilan olib kelingan kayfiyatni sezish uni his qilish esa ustozni komilning savobli ishidir, ustozning vazifasi faqat unga bilim berishdan iborat emas, balki o‘quvchinig ichki histuyg‘ulari bilan hisoblashish uning oilaviy sharoiti muammolari bilan qiziqish, o‘smirmning muammolarini anglay olish, ichki qalb bilan seza olish qobiliyatini ishga solishi zarur. Hadis namunalarida ham shunday deyiladi. “Odam qalbida go‘yo oy yonidagidek bir bulut bordir. Oy yoritib turganda to‘satdan bulut kelib uni berkitib qo‘ysa –qorong‘ulik, bulut ko‘tarilsa yorug‘lik bo‘lib turgani kabi, qalb ham ba‘zida ravshanlashib, ba‘zida xiralashib turadi”.

Shunday ekan hadisda keltirilganidek o‘sha oy bu ustozdir-ustoz esa oy bo‘lib o‘quvchi qalbidagi bulutni tarqatib yuborishda uning qalbidagi og‘ir histuyg‘ularni parchalab yuborishi butun bir savobli ish deb qabul qilinadi. Qalb doimo o‘zgarib turishi sabali qalb deb ataladi. Go‘yoki u sahrodagи bir shohchaga ilinib qolib, goh u yoqqa goh bu yoqqa ag‘darilayotgan barg kabitidir “Demak hadislarda keltirilgani kabi inson qalbidek o‘zgarib turuvchi mo‘jizalar dunyoda yo‘q hisobi, mana shu qalbni pokizalash, uni o‘zgartirish, uni turli salbiy his tuyg‘ulardan tozalab turish bu har bir pedabog-psixologning eng muhim ishlaridan biridir. Maktabda shunday ishlarni tashkillashtirish kerakki haftasiga bir-yoki ikki marotaba “Kayfiyat” kunini tashkil etish zarur. Bu o‘quvchilar qalbidagi yashirin tuyg‘ularning ochib berilishini ko‘rsatishi mumkin. Bunda oddiy smayllchalardan ya‘ni inson qiyofasi aks ettirilgan aylana, doirachalardan foydalanish mumkin. Maktabga kirish joyida ma‘lum belgilangan joyda smayllarni terib qo‘yish va

bunda har bir o`quvchi o`zi xohlagan kayfiyatni tanlab oladilar va o`zining sinfi yozilgan maxsus qutilarga tashlaydilar. Amaliyotchi psixolog bu natijalarni tahlil qilishda smayllarni sanab chiqadi va qaysi sinfda kayfiyatning tushkun yoki turg‘un, mutanosib ekanligini bilib oladi va keyinchalik o`quvchilar orasiadan kayfiyatida o`zgarish bo`lgan bolani topib shug‘ullanaib boshlaydi, yoki maxsus treninglardan foydalanib muhitni o`rganadi va yaxshilaydi. Shunday xulosa qilib ta’kidlash joizki har bir amaliyotchi psixolog o`z ishslash uslubini ishlab chiiqishi maxsus berilgan ish rejasidan tashqari o`z kasbiy faoliyatini rivojlantirishi, o`z metodlariga ega bo`lishi zarur deb hisoblayman. Axir eng buyuk ish inson qalbi, inson hayoti bilan bog‘liq bo`lgan pedagog-psixologning ishbi o`quvchiga to‘g‘ri maslahat va yo‘l ko‘rsatib uning sirlarini saqlay olish, uni maxsus kasbga yo‘naltirish bilan bog‘liqku. Zero yozuvchi Abdulla Qahhor aytganidek “Biror asar o`quvchida qanday ta’sir qoldirsa, uni qaysi yo‘lga boshlasa g‘oyasi o‘shada” degan fikrni bildirgan. Darhaqiqat hozirgi kunda yoshlarni turli yot va salbiy fikrlarga berilib ketmasliklari uchun ularga ezgu g‘oya fikrlarni singdirish, hayotning murakkab sinovlari oldida bardosh, sabr va matonatni o‘rgatish, ta’sir etish yo‘llarinin qidirish zarur. Shundagina o’smir va o’spirinlarni komil inson qilib tarbiyalashda o`z hissamizni qo‘shishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rivojlanish Psixologiyasi. Pedagogik-Psixologiya. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova .
2. Eshmurodov O. E. SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MAINTAINING FAMILY-MARRIAGE RELATIONS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 12. – С. 803-807.
3. Эшмурадов О. Э. ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРДА ШАХС МОСЛАШУВЧАЛИГИ ХУСУСИЯТИНИНГ ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИГА ТАЪСИРИ: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.21.57.012> Эшмурадов Олмосбек Эламонович, Термиз давлат университетининг Педагогика институти Психология кафедраси катта ўқитувчisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 1-Махсус сон. – С. 377-380.
4. Eshmurodov, Olmosbek. "ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ." *Scienceweb academic papers collection* (2022).
5. Эшмурадов О. Э. Оиланинг маънавий-ахлоқий хусусиятлари ва оила мустаҳкамлигини таъминлаш имкониятлари //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 1082-1085.
6. Эшмурадов, О. Э. "Оилавий муҳит ва оилавий муносабатлар психологиянинг ўрганиш предмети сифатида." ЎзМУ хабарлари" Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон миллий университети илмий журнали (2019): 162-164

7. Eshmurodov O. ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ //Scienceweb academic papers collection. – 2022.
8. Эшмурадов, О. Э. (2021). Оиланинг маънавий-ахлоқий хусусиятлари ва оила мустаҳкамлигини таъминлаш имкониятлари. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 1082-1085.
9. Elamanovich, O. E. (2022). OILAVIY MUNOSABATLARDAGI NIZOLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. Archive of Conferences, 1-7.
10. Eshmurodov, O. E. (2022). SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MAINTAINING FAMILY-MARRIAGE RELATIONS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 803-807.
11. Eshmurodov, O. (2024). MAKTABLARDA PSIXOLOGIK XIZMATNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 152-155.
12. Eshmurodov, O. (2024). TAЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ ВА ДОЛЗАРБЛИГИ. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 148-151.
13. Eshmurodov, O., & Fazliddinova, U. (2024). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O’QUVCHILARNI O’QISHGA O’RGATISHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O’RNI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 169-173.
14. Эшмуродов, О. (2023). Talabalar oila haqidagi tasavvurlarining oila mustahkamligiga ta’siri. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 71-74.
15. Eshmurodov, O., & Норматова , Д. (2024). ЎСМИР ВА ОТА-ОНАЛАР МУНОСАБАТЛАРДАГИ НИЗОЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ . Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 666-670. извлечено от <https://art.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9948>
16. Eshmurodov, O. (2024). ИНТЕРНЕТГА ТОБЕЛИКНИ КЕЛТИРИБ ЧИҚАРУВЧИ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 894-899. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/10012>